

O‘QUVCHI-YOSHLAR DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH.

Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich
Andijon davlat universiteti
Umumiy pedagogika kafedrasi v.b.dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
+998937849280

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlar dunyoqarashini rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Hamda o‘quvchi-yoshlar dunyoqarashini rivojlantirish masalalari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: dunyoqarash, ma’naviyat, ma’naviy qadriyatlar, qadriyatlar, ma’naviy meros, xalq og‘zaki ijodi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗЦОВ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В РАЗВИТИИ ЧИТАТЕЛЬСКО-МОЛОДЕЖНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ.

Абдуллаев Мухаммадимин Эгамбердиевич
Андижанский государственный университет
кафедра Общей педагогики в.и. доцент,
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам
+998937849280

Аннотация: В данной статье раскрывается роль и значение образцов устного народного творчества в развитии мировоззрения учащихся-

молодежи. Освещаются вопросы развития мировоззрения учащихся молодежи.

Ключевые слова: мировоззрение, духовность, духовные ценности, ценности, духовное наследие, народное искусство.

THE USE OF SAMPLES OF FOLK ORAL ART IN THE DEVELOPMENT OF THE READER'S AND YOUTH WORLDVIEW.

Abdullayev Mukhammadimin Egamberdievich
Andijan State University General
Department of pedagogy v.b.associate professor,
doctor of Philosophy (PhD)in Pedagogical Sciences
+998937849280

Abstract: This article reveals the role and importance of samples of oral folk art in the development of the worldview of young students. The issues of the development of the worldview of students are highlighted.

Keywords: worldview, spirituality, spiritual values, values, spiritual heritage, oral creation of the people.

Kirish. Tarixdan ma'lumki, uzoq o'tmishda, hali yozuv kashf etilmagan paytlarda, kishilar o'zlarining tabiat va jamiyatga bo'lgan barcha munosabatlarini og'zaki bayon etganlar. Mana shu jarayonda ularning og'zaki ijodi paydo bo'lgan. Xalq og'zaki ijodi o'ziga xos bir necha xususiyatlarga ega bo'lib, ularning barcha janrlari ijro jarayonida yashaydi. Shu bois og'zakilik xalq ijodiyotining yaratilish va yashash tarzi hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi yakka shaxslarning orzu-istaklari emas, balki jamoaning, ko'pchilikning orzu-istaklarini ifodalaydi. Chunki og'zaki ijod xukmronlik qilgan paytlarda ijodkor shaxsiyati hali ommaning ijodiy jarayonidan ajralib chiqmagan edi. Demak, ijodning ommaviyligi faqat xalq og'zaki ijodigagina xos xususiyat xisoblanadi. Albatta, har qanday asarni xalq ichidan

chiqqan iste'dodli shaxslar yaratadi. Biroq bu asarlar ommaning g'oyaviy-badiiy qarashlarini ifoda etadi, og'izdan-og'izga o'tib, badiiy sayqal topadi va ommaning umumiy ma'naviy mulkiga aylanadi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodi asarlarining dastlabki yaratuvchilari noma'lum bo'ladi. Asar ijodkorining noma'lumligi esa xalq og'zaki ijodining o'zigagina xos yana bir xususiyatdir.

Xalq og'zaki ijodi xalq hayotining barcha sohalarida o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodi janrlari nihoyatda xilma-xil bo'lib, ular kishilar turmush faoliyatining turli sohaları turlicha shakllarda ijro etilgan. Masalan, kishilar tirikchilik uchun zarur bo'lgan turli-tuman ishlar bilan shug'ullanish jarayonida qo'shiqlar kuylaganlar.

Xalq og'zaki ijodining shunday janrlari borki, ular qo'shiq sifatida ijro etilmay, balki bayon qilinadi. Afsona, ertak, maqol, topishmoq, latifa, lof kabi janrlar buning yorqin misoli bo'la oladi.

Shunday janrlar ham borki, ular maxsus cholg'u asboblari yordamida (masalan, do'mbra, dutor kabi) o'ziga xos tarzda kuylanadi. Bunday janrlarga termalar va dostonlar kiradi. Shuni aytish joizki, xalq og'zaki ijodi turli davrlarda vujudga kelgan bo'lib, turlicha ijro etiladigan xilma-xil janr namunalaridan tarkib topgan. Xalq og'zaki ijodi asosan yozuv paydo bo'lgunga qadar yaratilgan bo'lsada, yozuv kashf etilib, yozma adabiyot vujudga kelgandan keyin ham to'xtab qolmadi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodining maqol, topishmoq, qo'shiq kabi janrlariga mansub namunalar hozirga qadar ham yaratib kelinmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Xalq og'zaki ijodi namunalarida Vatanga, ota-onaga muxabbat, kattalarga extirom ko'rsatish, kichiklarni e'zozlash kabi oliyjanob tuyg'ular o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham o'tmish madaniy merosni tiklash va rivojlantirish, uni yosh avlod ongiga singdirish davlat siyosatida ustivor ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev baxshichilik san'ati YuNESKOning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilishi munosabati bilan yo'llagan tabrigida quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: "...Ushbu muhim va quvonchli yangilik madaniyat arboblari, ustoz baxshilar va

iqtidorli yoshlarimiz, folklor san'atining barcha ixlosmandlari, ko'pmillatli xalqimiz uchun albatta g'urur va iftixor baxsh etadi [1,1].

Xalqimizning asriy urf-odatlarini, ma'anviyati, madaniyatidan xabardor bo'lgan yoshlarga inson, uning g'ururi, sha'ni eng oliy qadriyat ekanligini anglab yetadi va xalq va jamiyat ravnaqi uchun fidoyilik ko'rsatish zarurligini tushunadi. Bunda ularga ota-bobolarimiz ibratini saboq vazifasini o'taydi. Shuningdek, o'quvchi-yoshlar dunyoqarashi rivojlanadi.

O'quvchi-yoshlar dunyoqarashini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoqarash xalq og'zaki ijodi namunalari yordamida o'quvchi-yoshlarda paydo bo'ladi. Dunyoqarash subyektiv voqe'likni baholovchi qarorlar to'plamidir. Atrof-olamni anglashga harakat qilish natijasi o'laroq kelib chiqadi. Dunyoqarash diniy, falsafiy, ilmiy bo'lishi mumkin. Dunyoqarash — dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillaridir [5,72]. Dunyoqarashga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlar birinchi navbatda o'z xalqi va mamlakati, ajdodlari bilan faxrlana oladi. U o'z kelajagini yaqqol tasavvur qila oladi. Dunyoqarash yordamida shaxs o'zining milliy mansubligini chuqurroq anglab yetadi. Shuningdek, dunyoqarash o'quvchi-yoshlarda ma'naviy-madaniy jihatdan yuksalish ehtiyojini vujudga keltiradi.

Tahlillar va natijalar. Dunyoqarash egasi o'z xalqi va mamlakati ravnaqi uchun mas'uliyat hissini tuyadi. Dunyoqarash egasi birinchi navbatda o'z xalqi va millatining tarixini yaxshi bilishi, uning madaniy ma'naviy boyliklari mazmun mohiyatini anglab yetishi lozim. O'z madaniyatini chuqur biladigan, undan g'ururlana oladigan yoshlarga o'zga xalqlar madaniyatini angelaydi va ularga nisbatan tolerant munosabatda bo'la oladi. O'quvchi-yoshlarga xalq og'zaki ijodi namunalari singdirish orqali sog'lom dunyoqarash shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga yo'llagan murojaatnomasida oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani

rivojlantirishimiz zarurligini alohida qayd etdi. Xususan, milliy o'zligimizni anglash, vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur [2,1].

Ajdodlarimiz xalq og'zaki ijodi namunalarida farzand tarbiyasi, ularda dunyoqarashni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Xalq qahramonlari o'z siymolarida ma'naviy dunyoqarashini namoyon eta olganlar. Xalq dostonlari qahramonlari bo'lgan ajdodlarimiz podsholar siymosida ko'plab ilm maskanlari, maktab, madrasalar ochib, bunyodkorlikni targ'ib qilganlar. Ular siymosida qahramonlik, jasorat va xalqparvarlik yaqqol namoyon bo'lgan. Vatan va xalq sha'ni uchun o'limga tik qaraganlar.

Ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy meros, xalqimizning dilida saralanib kelayotgan, uning og'zaki ijodi, hikmatlari, matal va maqollarida aks etgan ezgu aqidalar va ma'naviyat masalalariga munosabati, mulohazalari, fikr yo'nalishi o'zak-o'zagidan o'zaro muvofiq va uyg'undir.

Ajdodlarimizning ma'naviy merosi hisoblangan "Alpomish" dostonida o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan qahramonliklari keng o'rin olgan.

Xalqimiz azaldan o'z vujudi, o'z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo'lmoqqa intilib yashadi. O'z o'g'lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab keldi.

"Alpomish" dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqiqatgo'y bo'lishga o'z yurtimizni, oilamiz qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadi» [3,1].

Ma'naviyat va ma'naviy qadriyatlarimizni rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb masalasi deb qaralmoqda. Jumladan: «ma'naviyat— kishining

ichki, ruxiy, axloqiy, qiyofa tushunchasi bo'lib, ma'lum bir axloq me'yorlari, normalari asosida yashash tarsi, umuman xayotidir. » [4,180].

Xalq og'zaki ijodi namunalari – xalqning ko'p asrlik tajribasi, donishmandligi va hayotiy saboqlarini o'z ichiga olgan bebaho ma'naviy merosdir. Bu namunalar o'quvchi-yoshlarning dunyoqarashini rivojlantirishda, ularning ma'naviy va axloqiy tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Quyida xalq og'zaki ijodi namunalari orqali yoshlar dunyoqarashini rivojlantirishning asosiy jihatlari, usullari va ahamiyati haqida kengroq ma'lumot keltiriladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari ko'p turlarga bo'linadi:

Eposlar va dostonlar: Xalq eposlari va dostonlari o'zbek xalqining tarixiy xotirasi va qahramonlik madaniyatining aksidir. Masalan, “Alpomish” dostonida yigitning jasorati, vatanparvarligi va oilaga sadoqati kabi fazilatlar tasvirlangan.

Matallar va maqollar: O'quvchi-yoshlarning hayotiy tushunchalari va tajribalarini boyitishda matal va maqollar katta rol o'ynaydi. Ular qisqa va lo'nda shaklda hayotiy haqiqatlarni o'z ichiga oladi.

Lapar va termalar: Lapar va termalar orqali xalqning kundalik hayoti, sevgisi, mehnati va orzulari tasvirlangan. Bu asarlar yoshlarning badiiy tafakkurini rivojlantiradi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari orqali dunyoqarashni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Ma'naviy tarbiya: Xalq og'zaki ijodi namunalari ma'naviyatni shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ularda insonning ruhiy fazilatlari, adolat, vatanparvarlik, oila qadriyatlari singari masalalar yoritiladi.

Axloqiy tarbiya: Bu asarlar orqali yoshlar yaxshilik va yomonlik, halollik va insofsizlik, mehr-muhabbat kabi axloqiy tushunchalarni o'rganadilar. Masalan, “Tohir va Zuhra” dostonida halollik, sadoqat va sevgining qudrati yuksak baholanadi.

Til va nutqni rivojlantirish: Xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchi-yoshlarning ona tilini chuqur o'rganishiga, ularning nutqini boyitishga yordam beradi. Bu orqali ularning nutq madaniyati, so'z boyligi oshadi.

Adabiy bilimlarni kengaytirish: Bu asarlar milliy adabiyotga qiziqishni oshiradi va adabiyot bo'yicha bilimlarni kengaytiradi. Yoshlar xalq og'zaki ijodi orqali adabiy obrazlar, syujetlar va uslublarni o'rganadilar.

Jamiyatga moslashish: Xalq og'zaki ijodi namunalari yoshlarni jamiyatga moslashishga o'rgatadi. Ular orqali yoshlar jamiyatning turli qatlamlari, urf-odatlar, qadriyatlari bilan tanishadi.

Ijtimoiy mas'uliyatni anglash: Bu asarlar yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga, jamoa oldida o'z burchini ado etishga o'rgatadi. Masalan, "Kuntug'mish" dostoni yoshlarni vatanparvarlikka, xalqparvarlikka undaydi.

Kreativ tafakkurni rivojlantirish: Xalq og'zaki ijodi namunalari yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu asarlar orqali ular yangi g'oyalar va innovatsion yechimlar yaratishga ilhomlanadi.

Estetik tarbiya: Bu asarlar yoshlarning estetik didini shakllantiradi. Ular xalq ijodining go'zalligi, badiiy qiymati va mazmuniy boyligini his qiladilar.

Darslarda qo'llash: Xalq og'zaki ijodi namunalari maktab darsliklariga kiritilishi va ular asosida maxsus darslar o'tkazilishi lozim. Bu darslarda matnlarni tahlil qilish, rol o'yinlar va munozaralar o'tkazish mumkin.

Qo'shimcha darslar faoliyatlar: Maktabdan tashqari tadbirlar, masalan, xalq ertaklari kechalari, dostonlar o'qish tanlovlari tashkil etish. Bu tadbirlar o'quvchilarning xalq ijodiga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Interaktiv metodlar: Multimedialar, video va audio yozuvlar orqali xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish. Bu usullar yoshlar uchun yanada qiziqarli va mazmunli bo'ladi.

Ijodiy mashg'ulotlar: Yoshlarni o'zlari ertaklar, hikoyalar yoki maqollar yaratishga undash. Bu orqali ularning ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchi-yoshlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasida katta rol o'ynaydi. Bu asarlar orqali yoshlar hayotiy saboqlarni o'rganib, o'zlarini va jamiyatni yanada chuqurroq anglab yetadilar. Xalq og'zaki ijodi namunalari tarbiyaviy ahamiyatining asosiy jihatlarini quyida kengroq ko'rib chiqamiz:



Xalq og'zaki ijodi namunalari tarbiyaviy ahamiyatining asosiy jihatlari.1.1

Xulosa. Bugungi kunda ma'naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash, o'quvchi-yoshlar dunyoqarashini rivojlantirish ma'naviyat sohasidagi asosiy vazifalarimizdir. Xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchi-yoshlar dunyoqarashini rivojlantirishda ulkan imkoniyatlarga ega. Bu asarlar orqali yoshlar ma'naviy, axloqiy, adabiy va ijtimoiy jihatdan boyib boradilar. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi ularning ijodiy va estetik tarbiyasiga katta hissa qo'shadi. Yoshlar xalq og'zaki ijodi namunalari orqali o'z milliy qadriyatlarini, tarixini va madaniyatini chuqur anglab yetadilar. Bu esa ularning milliy iftixor tuyg'usini oshirishga, vatanga muhabbat va sadoqat hissini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmiy-metodik yondashuvlar yordamida xalq og'zaki ijodi namunalari ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi kerak. Bu nafaqat o'quvchilarning bilimlarini boyitadi, balki ularning ma'naviy dunyosini ham boyitadi. Shu tariqa, yoshlar zamonaviy jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan, axloqiy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib shakllanadilar.

O'quvchi-yoshlar dunyoqarashini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali, eng avvalo, ma'naviy qadriyatlarni to'g'ri baholay olish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Shavkat Mirziyoev baxshichilik san'ati YuNESKOning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilishi munosabati bilan tabrik yo'lladi – Daryo. 2021-yil.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Tarixni qayerdan boshlash kerak: milliy g'oyani rivojlantirish uchun takliflar (kun.uz) 2018-yil.
3. Karimov I.A. "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq .-Asarlar T.8.-T.: O'zbekiston, 2000-yil
4. J.Xasanboyev, X.To'raqulov,M.Xaydarov,O.Xasanboyeva Pedagogika fanidan izoxli lug'at.-T.: Fan va texnologiya, 2008.-B.180
- 5.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000.-B.72